

har qanday firibgarlik va yolg'ondan himoya qilish borasida ham ishlar olib borilmoqda. Ko'rيلayotgan barcha chora-tadbirlar kapital bozorining yanada rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Kelgusida mamlakatimizda milliy bozorni rivojlantirish, tartibga solish, infratuzilmani, moliya bozorining mavjud vositalarini takomillashtirish va xalqaro moliya institutlarini jalg qilish uchun mintaqaviy investitsiya moliya markazini tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Buning uchun bugungi kunda bank tizimini avtomatlashtirish va xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi yangi zamonaviy usullar joriy etilmoqda. Albatta, moliya bozorini tartibga solish juda qiyin ish. Trendlar doimo o'zgarib borayotganligi sababli moliyaviy vositalar doirasini kengaytiradigan yangi tendensiylar va mahsulotlar paydo bo'ladi.

Hozirgi kunda moliya bozorlari yangi ish o'rinalarini yaratishi mumkin bo'lgan asosiy bozorlar ekanligini hammamizga ma'lum. Shuni inobatga olgan xolda quyidagilarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb bilamiz

-mamlakat ham mintaqaning ichida, ham mintaqaga va xalqaro moliya bozori o'rtasida moliyaviy xab xizmatini taklif qilish
- xalqaro standartlarga javob beradigan infratuzilmani yaratish
- yaxshi ishlashi uchun turli xil vositalar, nou-xaularni joriy qilish kerak
- xususiy sektor moliyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak
- banklarni xususiylashtirish va ularni boshqarishda davlat ulushini kamaytirish kerak deb hisoblaymiz.

Xususiylashtirish jarayonlariga haddan ziyod ta'sirchanlik, aksionerlik jamiyatlariga talablarning asossiz ravishda oshirib yuborilgani, moliya bozori sektorlarini qayta isloq qilishda muvozanatlashtirilgan yondashuvning mavjud emasligi bozorning rivojlanishiga asosiy to'sqinlik qilgan sabablardan biri bo'lib kelmoqda

**O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA PUL YUVISH BILAN BOG'LIQ
JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH UCHUN BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI
SALOHIYATINI O'RGANISH**

Quvatova O.SH.

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti o'qituvchisi

Husenov Muhriddin

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

So'nggi yillarda jahon moliyaviy tashkilotlari dunyo bo'ylab moliyaviy tizimlarning yaxlitligi va barqarorligiga jiddiy ko'rinishda tahdid soladigan, jinoyat olamida keng tarqalgan pul yuvish muammosi bilan kurashib kelmoqda. Bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan davlat sifatida O'zbekiston ham bunday muammolarga duch kelishi muqarrardir. Pul yuvish moliyaviy insitutlarning shaffofligi, barqarorlilik va ishonchlilikiga putur yetkizibgina qolmay, o'sha

mamlakat hududidagi jinoiy faoliyatlarning avj olishiga, shuningdek jinoyatchilarning nazoratsiz qolib ketishiga ham zamin yaratadi. Hozirgi kunda, pul yuvish bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish ishlari murakkab jarayon hisoblanib, jinoyatlarga qarshi kurashishda bir necha qiyinchiliklarga duch kelmoqda va bu soha bir qancha yangi innovatsion g'oya, yechimlarga muhtojdir.

Bilamizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079 son¹⁶⁶ "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasiga oid farmoni bo'yicha respublikamizda bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilayabdi va 2030-yilgacha bir qator maqsadlar qo'yilgan. Shuni yodda tutishimiz kerakki, mamlakatimiz o'z taraqqiyotini jadal rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarga urg'uni qaratarkan, shu bilan birqalikda unga bo'lgan turli ko'rinishdagi tahdidlar ortishini ham hisobga olishi lozim. Bu tahdidlar asosan, kibertahdidlar ko'rinishda bo'lin turli xil ma'lumotlar o'g'irlanishi, fishinglar, tizimlarni izdan chiqarish uchun yaratilgan virusli tahdidlar hamda, pul yuvish kabi jinoyatlar hisoblanadi. Bu tahdidlar har birining jiddiy zararlari yuqoriliga va bartaraf etish yo'llari turli ko'rinishda bo'lganligi tufayli, alohida ko'rib chiqilishi lozimdir.

Pul yuvish bu har qanday noqonuniy ravishda olingan daromadlarni asl manbasini yashirgan holda ularning kelib chiqishini qonuniydek ko'rsatish harakatlaridir. Pul yuvishga bo'lgan urinishlar juda jiddiy hisoblanadi, chunki uning hajmini aniqlash qiyindir va barcha harakatlar davlatdan yashirin ravishda olib boriladi. BMTning "Giyohvand Moddalar va jinoyatchilik" bo'limi tomonidan berilgan hisobotda ko'rsatilishicha 2009-yilga kelib barcha jionyatlardan keltirilgan daromadlar tahminan 2,1 trillion AQSH dollarini tashkil etgan. Shuningdek, hisobotda ta'kidlab o'tiladiki "bu global noqonuniy pul oqimlarining 1%dan kam qismi aniqlangan va musodara qilinib, muzlatilgan"¹⁶⁷. Buning shunisi xavfliki, bu holatlar nafaqat odam savdosi yoki giyohvandlik jinoyatlari avj olishiga, balki davlat nazoratisiz katta miqdordagi pul munosabatlari amalga oshirilishi iqtisodiy sektorga jiddiy zarar yetqazishi mumkin.

Pul yuvishga qarshi xalqaro Bazel indeksi (Basel Anti-Money Laundering Index) rasmiy saytida joylashgan 2023-yildagi reytingiga binoan O'zbekiston pul yuvish va unga bog'liq jinoyatlar xavfi bo'yicha 5.12 ko'rsatkich bilan 76-o'rinni egallab turibdi¹⁶⁸. Bu ko'rsatkich mamlakatning ichidagi 5 ta asosiy toifa ko'rsatkichlar orqali hisoblangan:

- Pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizim sifati.
- Mamalakatdagi korrupsiya va poraxo'rlik xavfi.
- Moliyaviy shaffoflik va standartlar.
- Aholining xabardorligi va ma'lumotlarga egaligi.
- Qonun ustuvorligi va inson huquqlari.

¹⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi 05.10.2020 yildagi "RAQAMLI O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASINI TASDIQLASH VA UNI SAMARALI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI" to'g'risidagi PF-6079-sen farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957#-5031756>


¹⁶⁷ Pietschmann, T., & Walker, J. (2012). Estimating illicit financial flows resulting from drug trafficking and other transnational organized crimes: Research report. <https://www.treasury.gov/resource-center/terrorist-illicit-finance/Documents/National%20Money%20Laundering%20Risk%20Assessment%20%E2%80%99>

¹⁶⁸ <https://index.baselgovernance.org/ranking>

Bu ko'rsatkich hozirgi sharoitda qoniqarli ko'rsatkich bo'lib ko'rinishi mumkin, ammo O'zbekiston raqamlı texnologiyalarni keng ravishda qo'llashni yaqin yillarda boshlaganini hisobga olsak, bu ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi omillarga bo'lgan tahdidlar oshishini kutishimiz mumkin. Shu sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga, boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda tayyor turishimiz lozim.

Dastlab Bitcoin kabi kriptovalyutalar uchun asosiy asos sifatida ishlab chiqilgan blokcheyn texnologiyasi pul yuvishga qarshi kurashish uchun istiqbolli vosita sifatida paydo bo'ldi. Bundan foydalangan holda, moliyaviy institutlar va pul yuvishga qarshi kurashuvchi organlar moliyaviy faoliyatlarni soddalashtirish, tranzaksiyalar monitoringini yaxshilash va pul yuvish faoliyati bilan bog'liq xavflarni yumshatish imkoniyatiga ega bo'lishdi.¹⁶⁹

Blokcheyn texnologiyalarini moliyaviy tizimlarimizda qo'llash jarayoni bir muncha qiyinchiliklar bo'lishi mumkin, buning eng asosiylaridan biri tashkilot yoki jarayonni tubdan yangilashdir. Blokcheyn texnologiyasini tashkilotlarda eng optimal tarzda qo'llash, hozirda "McKinsey 7-z sxemasi"ga mos tushadi.



1-rasm.¹⁷⁰ McKinsey 7-z sxemasi

Ushbu, "McKinsey 7-z" boshqaruvi modeli ichidagi 7 elementlarga blokcheyn texnologiyalari tatbiq qilish orqali tashkilot xavfsizligi olinib, undan yuqori samaradorlikka erishishimiz mumkin:

¹⁶⁹ Swan, M. (2015). Blockchain: Blueprint for a new economy. United States: O'Reilly Media, Inc, USA.

¹⁷⁰ Muallif ishlanmasi

- Strategiya: Blokcheyn integratsiyasi orqali ma'lumotlar bir markaz orqali boshqarilmaydi va uning shaffoflikda ishlovchi tizimi strategik keyslarda qo'l keladi
 - Struktura: Asosiy boshqaruvni nazorat qiladi va blokcheyn yordamida uzluksiz, samarali boshqaruvni ta'minlaydi.
 - Tizimlar: Blokcheyn raqamli tranzaksiyalarni boshqarish, ma'lumotlar yaxlitligi, maxfiyligini ta'minlagan holda butun tashkilot tizimi bo'lib xizmar qildi
 - Umumi qadriyatlar: Blokcheyn xavfsizligi yuqoriligi tufayli unga bo'lgan ishonch ortadi va bunda xodim-boshliqlar o'rtaсидagi munosabatlar manfaatini oshiradi
 - Ko'nikmalar: Xodimlarda yangi texnik ko'nikmalarni paydo qiladi va keyingi yuzaga keladigan muammolarga innovatsion yechimlar paydo bo'lishi uchun xizmat.
 - Uslublar: Uzluksizlikni ta'minlagan holda, kelgusidagi innovatsion uslublarga moslashuvchan bo'ladi.
 - Xodimlar: Blokcheyndan tizimidan xabardor xodimlar jalg qilinadi, natijada boshqa xodimlarning ham bu texnologiyaga bo'lgan qiziqishlari ortib xodimlar o'rtaсидagi raqobat kuchayadi.
- Umuman olganda, jinoiy guruhralar tomonidan yuzaga kelish mumkin bo'lgan pul yuvish holatlari uchun blokcheyn texnologiyalari global miqyosida yaxshi natijalar ko'rsatib kelmoqda va O'zbekistonda kelajakda tahdidlar oshishini tahmin qilgan holda, raqamli transformatsiya jarayonida blokcheyn texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda tatbiq qilish bozordagi bo'lgan yaxlitlikning oshishiga yetarli asos bo'lib xizmat qila oladi.

AKSIYALARНИ OMMAVIY JOYLASHTIRISH AMALIYOTINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Saidov Jasurbek Latipbayevich
Toshken davlat iqtisodiyot universiteti
"Moliya" kafedrasи assistenti*

Bizga ma'lumki, biznesni yuritish jarayoni juda murakkab jarayon bo'lib, uni yuritishning tashkiliy ko'rinishini tanlash yangidan tashkil etilayotgan biznes tuzilmalari uchun ham, ma'lum bir yillar mobaynida faoliyat yuritib kelayotgan tadbirkorlik tuzilmalari uchun ham muxim jarayon hisoblanadi. "Korporativ tuzilmalarning barchasi (aksiyadorlik jamiyatları, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy korxonalar, oilaviy korxonalar va x.k.) o'ziga xos xususiyatlarga egaki, tadbirkorlar tomonidan o'zi har tomonlama mos keladigan, uning oldiga qo'ygan maqsadlariga ko'proq javob beradigan shaklni tanlash vazifasini yuklaydi"¹⁷¹.

¹⁷¹ Элмирзаев С. Корпоратив молия. Дарслик . - Т.: «Иктисад-молия», 2019 и. - Б. 36